

Ishonch telefonlarimizga 73 ta fuqaro murojaat qildi

Murojaatlar bo'limi xodimlari 2023 yilning 24-28 iyul kunlari tibbiyot muassasalarida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **260 nafar** bemor bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqotlar o'tkazdi.

Ushbu bemorlarning asosiy qismi **Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va tibbiy radiologiya, ftiziatriya va pulmonologiya, urologiya, akusherlik va genikologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida, Bolalar milliy tibbiyot markazida, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko'p tarmoqli klinikasida, Eramed, Dr Boboev health center, Impuls klinik, Neyro Nuri, Prime medical group, Ravshan dvolash maskani kabi nodavlat tibbiyot muassasalarida** davolangan.

Telemuloqotlar natijasida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan **16 nafar** fuqaro **oziq-ovqat sifatidan, shifokor va hamshiralar muomalasidan hamda o'z hisobidan dori vositalari hamda tibbiy jihoz sotib olganligi** yuzasidan e'tiroz bildirgan bo'lsada, Jamg'armaga yozma murojaat qilmasligini bildirdi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi ishonch telefon(99 353 93 54, 94 353 93 54)lariga **73 ta** fuqarodan murojaatlar kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan "sms" xabarnoma hamda **jamg'arma faoliyati yuzasidan** fuqarolarning **og'zaki murojaatlari** bo'ldi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi **ishonch telefonlariga** hafta davomida imtiyozga ega fuqarolardan **14ta og'zaki e'tirozli murojaat kelib tushdi.**

Shulardan:

Toshkent shahar Yakkasaroy va Uchtepa tumanlarida yashovchi fuqarolar poliklinikada imtiyozli yo'llanma olish uchun elektron navbatga qo'yishda muammolarga uchrayotganliklari, Buxoro viloyatidan ikki nafar imtiyozga ega fuqaro Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya, travmatologiya va ortopediya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlariga imtiyozli yo'llanma bilan qabul qilmayotganliklari yuzasidan noroziligini bildirib Jamg'armaning ishonch telefonlariga og'zaki murojaat qildi.

Fuqarolar murojaatlari tegishliligi bo'yicha Jamg'arma mas'ul xodimlariga ma'lumotlari berildi, **og'zaki e'tirozli murojaatlar o'z vaqtida bartaraf qilindi.**

Xorazm viloyatida yashovchi imtiyozga ega fuqaro **jigar ko'chirib o'tkazish uchun** qanday tartibda hujjatlar yig'ish kerakligi bo'yicha Jamg'armaning ishonch telefoniga og'zaki murojaat qildi. Ushbu murojaat yuzasidan viloyat bosh mutaxassisiga fuqaroning ma'lumoti berildi, **og'zaki murojaat ijobiy hal qilindi.**

Toshkent shahar Sirgʻali tumanida yashovchi imtiyozga ega fuqaro ***imtiyozli yoʻllanma olish va Davlat tibbiy sugʻurtasi jamgʻarmasi faoliyati*** yuzasidan tashkilot manziliga ***ogʻzaki murojaat qilib keldi***. Fuqaroga imtiyozli yoʻllanma olish tartibi va Jamgʻarma faoliyati yuzasidan maʼlumotlar berildi.

Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Namangan viloyatlarida hamda Toshkent shahrida yashovchi ***imtiyozga ega fuqarolardan*** Jamgʻarma ishonch telefoniga kelib tushgan ogʻzaki murojaatlar yuzasidan hududiy bosh mutaxassislarga maʼlumotlar berildi. ***Ogʻzaki murojaat qilgan fuqarolarga tegishliligi yuzasidan qayerga murojaat qilish kerakligi tushuntirildi***.

Murojaatlar bilan ishlash boʻlimi xodimlari hafta davomida umumiy ***333 nafar*** fuqarolar bilan telemuloqotlar oʻtkazdilar.

Davlat tibbiy sugʻurtasi jamgʻarmasi
Matbuot xizmati.